

Normativ-texnik boshqarmasi

Asosiy vazifalar:

a) DYoN organlarining normativ-texnik ishiga rahbarlik qilish va ushbu faoliyatni nazorat qilish;

b) loyihalashtirish normalarida yong'in xavfsizligi talablarini normativ jihatdan tartibga solish;

v) normativ-texnik faoliyatni tashkil qilish va amalga oshirish;

g) vazirlik tasarrufidagi va nazorati ostidagi ob'ektlarda davlat texnik nazoratini amalga oshirish («Qozonazorat» inspeksiyasi).

d) aholi, yuridik va jismoniy shaxslarga shaharsozlik faoliyatida yong'in xavfsizligi talablarining buzilishini, qurilish ob'ektlarida yuz berishi mumkin bo'lgan yong'inlar va uning oqibatlarini bartaraf etish bo'yicha har tomonlama yordam ko'rsatish, aholi bilan shaharsozlik masalalari bo'yicha o'zaro aloqalarni mustahkamlash va kengaytirish.

Asosiy funksiyalar:

a) normativ-texnik ishlarini amalga oshirish borasida DYoN organlari tizimiga rahbarlik qilish sohasida:

tashkiliy-uslubiy rahbarlikni amalga oshiradi, DYoN organlarining normativ-texnik (ishlar) yo'nalishi bo'yicha ishlarning holatini o'rganadi va tahlil qiladi, ularni takomillashtirish bo'yicha chora-tadbirlarni qo'llaydi;

qurilish uchun ajratilgan yer uchastkalarini, ishlab chiqilayotgan loyihalarni va qurilish ob'ektlarini hisobga olishni tashkillashtiradi;

ilg'or tajriba asosida quyi bo'linmalar faoliyatini takomillashtiradi;

faoliyat yo'nalishi bo'yicha mavzuga oid seminarlar tashkil qiladi va o'tkazadi;

quyi bo'linmalar xodimlarining bilim va ko'nikmalarini oshirish bo'yicha uslubiy qo'llanmalar ishlab chiqadi;

shaharsozlik faoliyatida yong'in xavfsizligini ta'minlash masalalari bo'yicha boshqa davlat nazorati organlari bilan hamkorlik qiladi.

b) loyihalash normalarida yong'in xavfsizligi talablarini me'yoriy jihatdan tartibga solish sohasida:

faoliyat yo'nalishi bo'yicha davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari bilan hamkorlikda yong'in xavfsizligi sohasida normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini ishlab chiqishda ishtirok etadi;

mavjud qurilish normalari va qoidalari, texnik reglamentlar, standartlar va yong'in xavfsizligi talablarini o'z ichiga olgan boshqa normativ hujjatlarni qayta ishlash va yangilarini ishlab chiqishda ishtirok etadi, qurilish normalari va qoidalarida yong'in xavfsizligi talablarini o'zgartirish va takomillashtirish yuzasidan takliflar kiritadi;

faoliyat yo'nalishi bo'yicha yong'in xavfsizligi talablarini o'z ichiga olgan normativ-huquqiy va boshqa hujjatlar loyihalarini ko'rib chiqadi va kelishadi.

v) normativ-texnik faoliyatni tashkil qilish va amalga oshirish sohasida:

yongʻin xavfsizligi talablaridan asosli ravishda chetga chiqilgan yoki bunday talablar mavjud boʻlmagan taqdirda binolar, inshootlarni va boshqa ob'ektlarni loyiha hujjatlarining yongʻin xavfsizligi talablariga taalluqli qismini koʻrib chiqadi;

loyiha hujjatlarini loyihalashtirish normalaridagi yongʻinga qarshi talablarga mosligini koʻrib chiqadi va ular boʻyicha xulosalar beradi;

qurilish uchun maydonlar (trassalar) tanlash (ajratish) komissiyasining ishida ishtirok etadi;

shaharlar, tumanlar va aholi punktlarining bosh rejalarini ishlab chiqishda yongʻin xavfsizligini taʼminlash masalalari boʻyicha asosli takliflar kiritadi;

aholi punktlari va ob'ektlar qurilishida yongʻin oʻchirish depolari binolarini qurish zaruratiga doir masalalarni koʻrib chiqadi;

qurilish-montaj ishlarini amalga oshirishda yongʻin xavfsizligi qoidalari talablariga rioya etilishi ustidan oʻrnatilgan tartibda nazoratni amalga oshiradi;

qurilishi (rekonstruksiyasi) tugallangan ob'ektlarni, shuningdek yongʻinga qarshi texnik himoya vositalarini foydalanishga qabul qilish komissiyalarining ishida ishtirok etadi;

shaharsozlik faoliyatida yongʻin xavfsizligi talablarini taʼminlash masalalari boʻyicha oʻtkaziladigan xalqaro anjumanlar, seminarlar va ilmiy-texnik kengashlarda ishtirok etadi;

g) davlat texnik nazoratini amalga oshirish («Qozonnazorat» inspeksiyasi) sohasida:

FVV nazorati ostidagi ob'ektlarda bugʻ va suv isitish qozonlari, yuk koʻtarish kranlar, koʻtargichlar, liftlar, bosim ostida ishlaydigan idishlar, gʻavvoslik barokameralar, GTHX bazalaridagi kompressor uskunalarni tayyorlash, taʼmirlash va ularni xavfsiz ekspluatatsiya qilish jarayonini nazorat qiladi;

nazorat ostidagi ob'ektlarni hisobotini yuritadi, roʻyxatga oladi va hisobdan chiqaradi, ularni foydalanishga tushirish boʻyicha ruxsatnomalar beradi;

nazorati ostida boʻlgan ob'ektlarda texnik tekshiruv va koʻriklar oʻtkazadi; nazorat ostidagi ob'ektlardan foydalanishda avariya va baxtsiz hodisalarni tekshirishda oʻrnatilgan tartibda ishtirok etadi va ularning oldini olish boʻyicha chora-tadbirlar amalga oshirilishini nazorat qiladi;

nazorat ostidagi ob'ektlarni saqlash va ulardan foydalanishda texnik nazoratning holatini, avariya va ishlab chiqarishdagi jarohatlar sabablarini tahlil qiladi, ularni bartaraf etishga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqadi.

d) shaharsozlik faoliyatida aholi, yuridik va jismoniy shaxslarga yongʻin xavfsizligi talablarining buzilishi, qurilish ob'ektlarida yuz berishi mumkin boʻlgan yongʻinlar va ularning oqibatlarini bartaraf etish boʻyicha har tomonlama yordam berish, shaharsozlik masalalari boʻyicha aholi bilan oʻzaro aloqalarni mustahkamlash va kengaytirish sohasida:

loyihalashtirish va qurilishda yongʻin xavfsizligini taʼminlash masalalari boʻyicha yuridik va jismoniy shaxslarning murojaatlarini oʻrnatilgan tartibda koʻrib chiqadi;

shaharsozlik faoliyatida yongʻin xavfsizligi sohasida davlat xizmatlarini oʻz vaqtida va sifatli koʻrsatilishini taʼminlaydi;

jismoniy va yuridik shaxslarga tegishli ob'ektlarning shaharsozlik normalari va qoidalaridagi yong'in xavfsizligi talablariga muvofiqligi to'g'risida xulosalar beradi;

ob'ektlar va inshootlarni loyihalashtirish va qurishda yong'in xavfsizligini ta'minlash masalalari bo'yicha yuridik va jismoniy shaxslarga maslahatlar beradi.